



Zamonamizning  
ko'rinmas qahramonlari:  
**IIV uchun  
kommunikatsion  
stikerlar to'plami**



Minim<sup>BRAND</sup>  
1953

# Loyiha

Huquqni himoya qiluvchi organlar va yo'l-patrusi xizmati xodimlari aks etgan  
noyob stikerlar to'plami (stickerpak).



# Bir maqsad — bir jamiyat

Salbiy yangiliklar magnit kabi odamlar e'tiborini tortadi va ularda kuchli qiziqish uyg'otadi — buni ko'plab tadqiqotlar tasdiqlaydi. Bu achinarli haqiqat hayotimizda o'z aksini topadi. Huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari ham diqqat markazida bo'lganlari bois tez-tez mana shunday holatlarga tushib turadilar.

Ammo har kuni ular bizning xavfsizligimiz va qulayligimizni ta'minlash uchun xizmatga shaylanadilar. Ularning xizmati shunchaki tartibni saqlashdan ko'ra kattaroq.

# Bir maqsad — bir jamiyat

Ular biz ko'pincha xayolimizga ham kelmaydigan qiyinchiliklar bilan yo'liqadilar. Jazirama yoki qaxratonda o'z postlarida qoladilar, transport oqimini nazorat qiladilar, xavfsizligimiz haqida qayg'uradilar. Bizda muammo paydo bo'lгanda ular yordam berishga tayyorlar. Bu ko'p hollarda e'tibordan chetda qoladigan og'ir mehnatdir.

Huquqni muhofaza qiluvchi ogran xodimlari va jamiyat — bu bir umumiy maqsadga ega bir jamoadir. Maqsad — barchaning xavfsizligi va farovonligi. IIIV xodimlari bilan bizning hamkorligimiz mana shu umumiy maqsadga asoslangan — jamiyatimizda xavfsizlik va qulaylikni ta'minlash. Yana bir maqsad — ular shunchaki "ular" emas, balki barchamiz kabi inson ekanlari haqidagi g'oyani ilgari surish. Ular ham biz kabi qiyinchilik ko'radir va quvonadilar.




# Muammo

Huquqni muhofaza qilish xodimlariga bo'lgan ishonchszlik uzoq vaqt davomida jamiyatimizda jiddiy muammo bo'lib keldi. Biz bu masalani tadqiq qilishga va uning psixologik jihatlarini o'rghanishga qaror qildik. Ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, bu xodimlarga bo'lgan salbiy munosabat shakllanishida stereotip obrazlar va noxolis fikrlar asosiy ahamiyat kasb etar ekan.

IIV xodimlari o'z navbatida jamiyat munosabatini ijobiy tarafga o'zgartirish uchun kerakli harakatlarni amalga oshirishmoqda. Ammo biz ham bu jarayonda faol ishtirok etishimiz lozim. Biz ijobiy munosabatlarni qo'llab-quvvatlashga va mustahkamlashga yordam beruvchi qo'shma choralarни taklif etamiz.

IIV jamoatchilik bilan aloqalar departamenti bilan hamkorlikda biz noyob stikerpak g'oyasini ishlab chiqdik va unda huquqni muhofaza qiluvchi organ va YPX xodimlarini xayrixoh va do'stona ko'rinishda aks ettirdik. Har bir stikerda takrorlanmas obraz yaratish uchun jamoamiz sidqidildan mehnat qildi. IIV xodimlariga bo'lgan yangicha nigoh ular ham jamiyatimiz a'zolari ekanini, xavfsizligimiz va tartibni saqlash uchun bor kuchlarini ayamayotganlarini anglashga yordam beradi.



# Muammo

## Ijtimoiy loyihaning asosiy afzalliklari

- **Stereotiplarni kamaytirish:** Stikerlar to'plami stereotiplarni yo'qotib, huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlariga bo'lgan yangicha do'stona qarashlarni shakllantirishga yordam beradi.
- **Ijobiy muloqotni ilgarilatish:** Stikerlar to'plami yordamida biz xavfsizlik xizmati xodimlari bilan pozitiv va ochiq ruhda muloqot qilishimiz mumkin, bu ishonchli munosabatlar qurishga imkon beradi.
- **O'zgarishlarni qo'llab-quvvatlash:** Statistika shuni ko'rsatdiki, stikerpak muvaffaqiyatli tarqalmoqda, bu esa jamiatning ushbu tashabbusga bo'lgan ijobiy munosabatini anglatadi.

# Natijalar

- **1282** kishi bizning stikerpakni o'zlariga o'rnatib olishdi va undan kundalik yozishmalarida foydalanishmoqda.
- **1608** kishi chat va guruhlarda stikerlardan foydalanishdi, bu ijtimoiy loyiha g'oyasini yanada ko'proq tarqalishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, biz IIV xodimlariga nisbatan ijobiy qarash shakllantirishga va ularga bo'lgan ishonchni oshirishga hissa qo'shganimiz uchun

**IIV Toshkent shahri boshqarmasidan** tashakkurnoma oldik.







Minim → IIV stikerlar to'plami → Stikerlar




*Minim* → IIV stikerlar to'plami → Stikerlar



Minim → IIV stikerlar to'plami → Stikerlar



Minim → IIV stikerlar to'plami → Stikerlar



**Minim** → IIV stikerlar to'plami → Stikerlar



Minim → IIV stikerlar to'plami → Stikerlar



**E'tiboringiz uchun rahmat**

